

SIYOSIY FANLAR SOHASIDA TADQIQOTLAR

ORTIQOV DIYORBEC NABIJON O'G'LI*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti 3-kurs talabasi**Siyosatshunoslik yo'nalishi***ANNOTATSIYA**

Mazkur maqola siyosiy fanlar sohasida kadrlarni tayyorlash, fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston prezidentining qarori qabul qilindi. Qaror bilan Tashqi ishlar, Iqtisodiyot va sanoat, Oliy va o'rta maxsus ta'lim hamda innovatsion rivojlanish vazirliklarining Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida 2019/2020-o'quv yili uchun qabul kvotalarini: "Siyosatshunoslik" bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha 20 kishi, shu jumladan, davlat granti bo'yicha 5 kishi; "Amaliy siyosatshunoslik" magistratura ta'lim mutaxassisligi bo'yicha 10 kishi, shu jumladan, davlat granti bo'yicha 2 kishi; "Siyosiy fanlar" fan tarmog'i ixtisosliklari bo'yicha tayanch doktoranturada 4 kishi, doktoranturada 2 kishi miqdorida belgilash to'g'risidagi takliflari ma'qullandi. Qarorga muvofiq, universitetda "Siyosatshunoslik" kafedrasini tuziladi. Kafedra faoliyatining asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi: ilg'or xorijiy tajriba hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish asosida siyosatshunoslik fanlari sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashni ta'minlash; jahon siyosatshunosligidagi eng yangi trend va yo'nalishlarni hisobga olgan holda xalqaro darajadagi ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash; "Siyosatshunoslik" fani bo'yicha o'quv jarayonini mazmun jihatidan takomillashtirish maqsadida yangi avlod darsliklari, o'quv qo'llanmalari, o'quv dasturlari va rejalarini tayyorlash tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatda O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlarini ilgari surish sohasida Tashqi ishlar vazirligi, boshqa vazirlik va idoralar oldida turgan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda ta'lim berish, fundamental va amaliy tadqiqotlarning yuqori darajasini ta'minlash; siyosatshunoslik, xalqaro munosabatlar va jahon siyosati, xalqaro iqtisodiyot va menejment, xalqaro huquq sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish, ularning natijalarini o'quv jarayoniga hamda tegishli o'quv rejalarini va dasturlariga tatbiq etish; siyosiy fanlar sohasida iqtisodiy siyosatshunoslik, siyosiy marketing va menejment, siyosiy sotsiologiya va boshqa innovatsion yo'nalishlarni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan metodologik va o'quv-texnologik shart-sharoitlarni yaratish. Hujjat bilan Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasi Tashqi ishlar vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda universitet ta'lim jarayoniga xorijlik, shu jumladan chet elda istiqomat qilayotgan vatandoshlarimiz orasidan yetakchi ekspertlarni jalb qilish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritishi belgilab qo'yildi.[1]

Kalit soʻzlar: *yoshlar, siyosiy fanlar, siyosiy maʼdaniyat, rivojlanish, yoshlar parlamenti*

KIRISH

Hozirgi shiddatila rivojlanish davrda, koʻplab davlatlar dunyo hamjamiyati orasida oʻz-oʻrnini topish uchun iqtisodiy-siyosiy jihatdan mukammalashishga harakat qiladi. Ayniqsa Oʻzbekiston kabi aholisining asosiy tarkibini yoshlar tashkil etadigan davlatlarning taraqqiyotini amalga oshirishda yoshlarga katta eʼtibor beriladi. Xususan mamlakatimiz tarqqiyotga erishishida hartamonlama oʻylangan va istiqboliy strategiyalar amalga oshirilmoqda. Bu strategiyalarda siyosiy jarayonlarni toʻgʻri va oqilonalik bilan amalga oshirish uchun ham katta qadamlar qoʻyilmoqda. Siyosatni toʻgʻri amalga oshirish bu millatni, xalqni va davlatni barqaror rivojlanishining asosiy omillaridan biri boʻladi. Siyosatni toʻgʻri olib borish uchun esa siyosiy ilmni yuksakdarajada izchillik bilan oʻrgatilishi kerak.[2]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI

Siyosiy ilmni rivojlantirish, izlanishlar olib borish, albatta katta mahoratni tashkil qiladi. Bunday mahoratlarni tashkillashtirish va oʻzlashtirish juda muhim. Davlatimiz tomonidan bu muhim masalaga katta eʼtibor qaratilgan. Bu mahoratlarni dalili sifatida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Yangi Oʻzbekiston - strategiyasi” kitoblaridagi quydagi soʻzlarini yodga olsak boʻladi: “Taniqliy siyosatchi, Parlamentlararo ittifoqning Bosh kotibi Martin Chungong boshliq rasmiy delegatsiya mamlakatimizga tashrif buyurganida u kishi bir fikrni afsus bilan taʼkidladi. Yaʼni, sayyoramiz aholisining yarmidan koʻpini 30 yoshgacha boʻlgan insonlar tashkil etsada, butun dunyo boʻyicha yosh deputatlarning ulushi 2,6 foizga ham yetmas ekan. Oliy martabali mehmon Oʻzbekistonda bu koʻrsatkich 6 foizdan oshganini yuqori baholadi”. [3] Prezidentimizning bu soʻzlari orqali davlatimizning asosiy kuchlaridan bir boʻlgan yoshlarimiz siyosiy jarayonlarga befarq emasliklari va siyosiy jarayonlarni oʻrganishda amaliy holatlarga katta eʼtibor berishyotgani yaqol koʻzga koʻrinadi.[4]

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Siyosiy fanlarni oʻzlashtirishda yuqori ilmiy texnologiyalardan foydalanish asosida, siyosiy fanlarni rivojlantirishga erishiladi. Bu texnologiyalarni yoshlarimiz orasida keng targʻib qilinishi albatta yoshlarni siyosatshunoslikka jalib qilishda asosiy oʻrin egalaydi. Chunki yoshlarimiz hozirgi kunda yangi ilmiy texnologik taraqqiyotga qiziqishi ortib bormoqda. Bunday jarayondan esa toʻgʻri yondashuv asosida foydalanilsa albatta yoshlarni siyosiy jarayonlarga jalib qila olish bilan birga ularni siyosiy ongini yuksaltira olish mumkin. Shu oʻrinda yoshlarni siyosiy fanlarga jalb qilishda ularni psixologik va biologik holatlariga eʼtibor berish lozim. Chunki har qanday inson jisoman va aqlan sogʻlom boʻlsa oʻz kasbiy yoʻnalishini fan nuqtaiy nazaridan ham, ilmiy jihatdan ham toʻgʻri yondashuv va taraqqiyotga chiqara oladi.

Siyosiy fanlarni rivojlantirishda bu holatga etibor berish juda muhim sanaladi. Respublikamiz tomonidan amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatida ham yoshlarimizni sog‘lom turmish va sog‘lom ma‘naviy holatini taminlashga katta e‘tibor berilmoqda.[5]

XULOSA

Siyosiy fanlarni yoshlar orasida keng miqiyosda targ‘ib qilish va ularni o‘qitish davlat va jamiyatni rivojlanish tendensiyasini konstruktiv asoslarda kechishini taminlaydi. Chunki siyosiy ilmga ega shaxs davlat tomonidan olib boriladigan islohatlar va siyosiy jarayonlarni faqat xalq uchun ekanligini to‘g‘ri baholay oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. YANGI O‘ZBEKISTON - STRATEGIYASI. - Toshkent “O‘zbekiston”
2. Nigmatov, A. X. O., Misaboyeva, M. B., & Yormatov, A. P. O. (2021). KORRUPSIYA-FUQAROLIK JAMIYATINING TANAZZULI. Academic research in educational sciences, 2(2), 125-131.
3. Тилабаев, С. Б., & Иззатова, А. У. (2020). ИСТОРИЯ ГОРОДОВ СРЕДНЕЙ АЗИИ (НА ПРИМЕРЕ ГОРОДА ФЕРГАНА). Актуальные научные исследования в современном мире, (4-5), 131-133.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori: Siyosiy fanlar sohasida kadrlarni tayyorlash, fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. Toshkent sh. 29.01.2019y.PQ-4139-son.
5. Izzatova, A. U. B., & Ilmuradova, F. S. (2022). Ispaniya qirolligi bilan O‘zbekiston Respublikasi o‘rtsidagi turizm sohasidagi ikki tomonlama hamkorlikning rivojlanishi. Science and Education, 3(11), 160-165.